

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



MUTAXASSISLIK FANLARI BO‘YICHA MAGISTRATURAGA

KIRISH SINOVLARI DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

**5A120201 - Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik
(ingliz tili) mutaxassisligi uchun**

Annotatsiya

Dastur 5A120201-Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5111400 – Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ta'lim yo'nalishining 2017/2018-o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi fanlar asosida tuzilgan.

Tuzuvchi: N.F. Qosimova – Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrası dotsenti, f.f.f.d.

Taqrizchi: Xodjayeva D.I. – Tabiiy yo'nalishlarda chet tili kafedrası mudiri, f.f.f.d.

Dastur Buxoro davlat universitetining 2021 yil 3 iyuldagi 19 sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va maqullangan.

KIRISH

Dasturning **maqsadi** – magistraturada o‘qishga talabgorlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishga layoqatini aniqlash bo‘yicha o‘tkaziladigan suhbat va uning mazmuni bilan tanishtirishdan iborat.

Dasturning **vazifasi** – magistraturada o‘qishga talabgorlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Mazkur suhbat sinovlari dasturi talabgorlarning quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan savollarni o‘z ichiga oladi:

- ilmiy-tadqiqotchilik bo‘yicha kompetentlik;
- pedagogik kompetentlik;
- ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar;
- ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishning huquqiy-me‘yoriy asoslari.

1. UMUMIY TALABLAR

Ilmiy-tadqiqotchilik va pedagogik kompetentlik:

- mutaxassislik va professional kompetentlik, uslubiy kompetentlik, axborot kompetentligi, intellektual-pedagogik kompetentlik; ilmiy va ilmiy- texnik sohalarda dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish mexanizmlari, ularni ishlab chiqish hamda amalga oshirish; zamonaviy axborot-telekommunikatsiya va ilmiy-hajmdor texnologiyalarini rivojlantirish hamda ularni ilmiy, ilmiy-texnik faoliyat va o‘quv jarayoniga tatbiq qilish;

- o‘z bilimlarini ko‘rsata bilish va boshqalarga bera olish qobiliyati;

5A120201-“Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili)” yo‘nalishi bo‘yicha jahonda miqyosida taraqqiyot tendensiyalari, tadqiqotning dolzarbligi, muammoning o‘rganilganlik va zamonaviy bilim darajasi, o‘z tadqiqotlarining muayyan fan sohasidagi roli va o‘rni;

- “Lingvistika (o‘zbek tili)” yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilimlarga egaligi, zamonaviy tadqiqot metodlarini bilishi;

- ilmiy muammoni qo‘ya olishi va hal etishi, tadqiqot maqsadlarini shakllantirishi va kutilayotgan natijalarni ilmiy asoslashi;

- ilmiy munozara olib borish qobiliyati, dunyoqarashining kengligi, mantiqiy fikrlash, bilimining serqirraligi.

Ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar:

- milliy mustaqillik mafkurasi asoslari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma‘naviyatli shaxsni tarbiyalash, o‘zbek xalqining boy ma‘naviy, moddiy merosi, ahloqiy kamolot, ahloqiy tamoyillar, vatanparvarlik va fuqarolik ongi, umumiy madaniyat, ijtimoiy faollik, olim psixologiyasi va etikasi va boshqalar.

Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishning huquqiy-me'yoriy asoslari:

- O'zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalarni rivojlantirish sohasidagi siyosatining asoslari, ularni amalga oshirishning maqsadi, vazifalari va yo'llari, shuningdek, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni rag'batlantiruvchi iqtisodiy va boshqa choralar tizimi, fan va texnologiya taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari;
- innovatsiyalarga bo'lgan talablarni oshirishning, fundamental fanning ildamlovchi taraqqiyotini ta'minlashning, eng muhim amaliy tadqiqotlar va ishlanmalarning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari;
- fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni bevosita va bilvosita rag'batlantirish choralari, bozor mexanizmlarini davlat tomonidan tartibga solinishi bilan oqilona uyg'unlashtirish, oliy ta'lim tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyatni takomillashtirish;
- oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash tizimi.

2. ILMIY-TADQIQOTCHI SIFATIDA KOMPETENTLIK

Umumiy tayyorgarlik

5A120201-“Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili)” sohasining ilmiy asoslarini, ilmiy va ilmiy-texnika sohasidagi metodologik asoslarini chuqur bilish, ilmiy va davriy nashrlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. Fan sohasining Respublika va dunyo miqyosida rivojlanish tendensiyalarini, taraqqiyoti yo'nalishlarini bilish. Global fikrlash, mulohaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishga tayyorgarlik

Fanning ilmiy asoslari mazmuni. Adabiyotlar. Ilmiy adabiyot turlari (monografiya, maqola, tezis, risola, referat va boshqalar) hamda ularning tuzilmalari (strukturasi).

5A120201-“Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili)” sohasining soha bo'yicha ilmiy asoslar (nazariy va amaliy). Nazariy izlanishlar olib borish usullari. Modellash. Parametrlarning o'zaro bog'lanish qonuniyatlaridan foydalanish.

5A120201-“Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili)” sohasining O'zbekiston Respublikasida va dunyoda rivojlanish tendensiyalari.

5A120201-“Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili)” sohasi oldidagi ilmiy va texnik muammolar hamda vazifalarini anglash.

Ilmiy faoliyatning tashkiliy jihatlar

Magistr akademik darajasi uchun talabgorlarga qo'yiladigan talablar. Magistraturaga kirish tartibi.

Fan sohasi bo'yicha ilmiy asoslarni bilish. Ilmiy muammolar

5A120201-“Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili)” sohasini rivojlantirishga hissa qo'shgan olimlar.

Soha o'quv fanlarining ilmiy asoslari tarkibi.

5A120201-“Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili)” sohasini rivojlanishi bilan bog'liq omillar.

Tanlagan mutaxassislik bo'yicha qo'yilgan ilmiy masala mohiyati, ilmiy maqsad va olinadigan natijalar mohiyati

3. PEDAGOGIK KOMPETENTLIK

Pedagogik-psixologik tayyorgarlik

Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'qitish shakllari, o'qitish metodlari va vositalari. Talaba shaxsini o'rganishning psixodiagnostik metodlari.

Ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini ta'minlash. Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish.

Mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish mahorati

Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga qo'yiladigan didaktik talablar.

Mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilish metodikasi.

O'qitishning zamonaviy usullaridan, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, multimediya ta'lim resurslaridan foydalanish.

Mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish

Talabalarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib topshirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati.

Masofaviy va virtual ta'lim olish.

O'z-o'zini kasbiy rivojlantirish

Fanlar turkumini ilmiy-nazariy jihatdan o'zlashtirish, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarning mazmun-mohiyati, rivojlanish tarixi.

4. MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR

Istiqlol, islohotlar, ma'naviyat tushunchalari.

Milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasi.

Milliy mustaqillik mafkurasi asoslari.

Ilmiy etika (ilmiy halollik) tamoyillari.

Ilmiy baxs tushunchasi.

Yuksak ma'naviyatli shaxs. Ma'naviy barkamollik. Ma'naviy barkamol inson.

Mafkuraviy immunitet. Diniy aqidaparastlik. Ma'naviy tahdid. G'oyaviy tahdid.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ilmiy-nazariy, ma'naviy- ma'rifiy, madaniy qadriyatlardan samarali foydalanish.

Ta'lim jarayonida tarbiyalashning didaktik omillari

O'qitish jarayonida talabalar ongiga milliy g'oyani singdirishning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllari.

"Ma'naviyat" kunlarini o'tkazish, dolzarb mavzular bo'yicha talabalar bilan suhbatlar o'tkazish, shu jumladan «ZiyoNet» axborot-resurs portali materiallaridan foydalanish.

5A120201-Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga kirish sinovlari mavzulari va ularning mazmuni

Qiyosiy tilshunoslik fani

KIRISH

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga qiyosiy tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va fanning fundamental masalalari bo'yicha nazariy bilim berish, ularni jahon va O'zbekiston tilshunos olimlarining qiyosiy tilshunoslik sohasida yaratgan va ma'lum darajada muhim ahamiyatga molik nazariy ishlari bilan tanishtirish hamda shu sohada mustaqil ilmiy-tadqiqot ish olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Fanning vazifasi – qiyosiy tilshunoslik fanining ilmiy apparati, uning asosiy yo'nalishlari va dolzarb muammolari bilan tanishtirish; fan muammolari buyicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish uchun zamonaviy metodlarni o'rgatish; tillarni qiyoslash sohasidagi nazariy bilimlarini chukurlashtirish va qiyoslanayotgan tillar tuzilmalaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash; turli konsepsiyalarni tanqidiy baholash va ularni qiyoslanayotgan tillarning materiali asosida tahlil qilishga o'rgatishdir.

Qiyosiy tilshunoslik faniga kirish.

Tilshunoslik fanining bir tarmog'i bo'lmish qiyosiy tilshunoslik fanining asosiy mazmuni. Fanning o'qitishning maqsad va vazifalari, uning predmeti va ob'ekti. Qiyosiy tilshunoslikning dolzarb masalalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Qiyosiy tilshunoslik fanining zamonaviy yo'nalishlari.

Qiyosiy tilshunoslik fanining asosiy tushunchalari.

Qiyosiy tilshunoslikda ishlatiluvchi asosiy atamalar talqini: lingvistik – nolingvistik tipologiya, qiyoslash turlari: ichki – tashqi, substansional – nosubstansional; “shakldan-ma'noga” va “ma'nodan-shaklga” tamoyilining ishlatilishi, tilda tip tushunchasi, metatil tushunchasi va uning tillarni qiyosiy o'rganishdagi roli, til universalialari va ularning qiyoslanayotgan tillarda namoyon bo'lishi, izomorfizm va allomorfizm tushunchalari, qiyoslashda sinxron va diaxron yondashuv va h.k.

Turli til sistemalarini qiyosiy o'rganishning zamonaviy metodlari va metodologiyasi.

Qiyosiy-tarixiy metodning paydo bo'lishi. F.Bopp, R.K. Rask, A.fon Shlegel, V.fon Shlegel, Ya.Grimm kabi olimlarning ushbu metod shakllanishiga qo'shgan hissasi. 3 Qiyosiy metod qiyosiy tilshunoslik fanining asosiy qo'llaniladigan metodi sifatida. An'anaviy metodlarning qiyosiy tilshunoslik fanida foydalanilishi: komponent tahlil, transformatsion tahlil, lingvostatistik tahlil kabilar. Lingvomadaniyatshunoslik sohasida qo'llaniladigan metodlar: dominant tahlil, diskurs tahlil, klaster tahlili, konseptual tahlil.

Tipologik tadqiqotlar tarixi

Tipologik tadqiqotlar tarixi. T. A. Amirova va B. A. Olxovikov hamda G. S. Klychkovlar tomonidan ishlab chiqilgan tilshunoslik tarixi rivojlanishidagi asosiy bosqichlar. Qiyosiy tilshunoslikning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi haqida D.J. Buranov taklif qilgan klassifikatsiya: - Lingvistikaga oid ishlarning ilk marta paydo bo'lishi; - A.Arno va K.Lanslo tomonidan yaratilgan "Por-royal grammatikasi", M.Qoshg'oriyning "Devonu lug'atit-turk" asari, A.Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" asari; - qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning fan sifatida shakllanishi.

Qiyosiy tilshunoslikda kategoriyalash muammolari.

Ifoda planidagi til tizimi o'lchov birliklarining tillararo adekvatligi va adekvat emasligi, ularning yaruslararo sinonimligi, ularning taskonomik masalalari. Tilning boshqa sathlarini tadqiq etishda kategoriyalash muammolari. Tilning leksik sathini tadqiq etishda kategoriyalash muammolari. Leksikani tizim sifatida qaralishi va tipologik yondashish imkoniyatlari

Grammatik va tipologik kategoriyalar.

Qiyosiy tilshunoslikda kategoriyalash muammolari. Grammatik kategoriya haqida ta'limot. Grammatik va mantiqiy kategoriyalar o'rtasidagi mutanosiblik. Tushuncha kategoriyalari. Funksional-semantik kategoriyalar. Grammatik-leksik maydon. Tipologik kategoriyalar. Tipologik ma'no va tipologik forma. Tipologik kategoriyaning tillararo, yaruslararo va so'z turkumlariaro xususiyatlari. Tipologik kategoriyalarning ifodalanishdagi mazmun va ifoda planlari birliklarining tillararo aloqasi.

Turli tillarning barcha sathlarida chog'ishtirma tadqiqot muammolari. Lingvistik, lingvodidaktik va tarjima maqsadlarda turli qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning barcha sathlarida (fonetika va fonologiya, morfologiya va sintaksis, leksika va frazeologiya) chog'ishtirma tadqiqot muammolari. Interferensiya muammolari.

Lingvistikaning zamonaviy yo'nalishlarida qiyosiy-tipologik tadqiqotlar.

a) *Madaniyatlararo muloqot:* madaniyatlararo aloqaning lingvistik asoslari; til va madaniyatlararo kommunikatsiya; qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning milliy – madaniy xususiyatlarini aniqlash muammolari; biologik va ijtimoiy jins tushunchalarining farqlanishi; ayol va erkak nutqiy xulqiga oid xususiyatlarni o'rganish; qiyoslanayotgan tillar milliy-madaniy xususiyatlarining barcha til sathlarida namoyon bo'lishi.

b) *Gender lingvistikasi*: qiyoslanayotgan tillarda grammatik rod kategoriyasi muammosi; “ayol” 4 jinsini “erkak” jinsi bilan taqqoslashdagi ijtimoiy, madaniy va psixologik aspektlar; gender tushunchasini etnomadaniy an’ana va tilning milliy o’ziga xosligi nuqtai nazaridan o’rganish va taqqoslash; gender faktorlarining madaniyatlararo kommunikatsiya jarayoniga ta’siri.

Lingvistik tarjimashunoslik fani.

XX asr tarjimashunosligida muammolar va qarashlar.

Rus tarjimon olimlari Barxudarov L.S., Shveysar A.D., Komissarov N., Levitskaya va Fittermanlar, mashina tarjimasining yaratilishi, ingliz va AQSh tarjimonlari, P. Nyumark, Alan Daf va Alan Maleyning tarjimonlik faoliyatlari). Tarjima nazariyasi va tarixi fanining boshqa lingvistik fanlar orasida tutgan o’rni. Tarjima natija hamda jarayon sifatida. Tarjima yechimlarining oldidan ko’ra bilinishi – masalaning ijobiy yoki salbiy hal etilishi. Tarjima jarayonining ilmiy asoslangan tavsifini tuzish va uning natijasini tahlil qilish mumkinligi.

Tarjima nazariyasining boshqa lingvistik fanlar bilan aloqasi. O’zaro bog’liq tilshunoslik fanlari va ularning tarjima nazariyasi bilan aloqasi tarjimaning ijtimoiy va psixolingvistik muammolari. Mashinada tarjima qilish. Tarjima nazariyasining tarkibiy tuzilishi, umumiy va maxsus tarjima nazariyalari.

Tarjima qilish muammosi

Fikrning mohiyatini boshqa til vositalari bilan yetkazish mumkinligi to’g’risidagi masalaning qo’yilishi. V.Fon Gumbolt va uning izdoshlari g’oyalari. E.Sepir va B.Uorf gipotezasi. Dunyoning til manzarasi tushunchasi. Til va tafakkurning o’zaro nisbati muammosi hamda uning turli tilshunoslik maktablari doirasida hal etilishi. Lingvistik nisbiylik nazariyasi va uning tanqidiy tahlilini tarjima qilish to’g’risidagi savolga ijobiy javob berish uchun asoslar. Tarjimada tarjima qilib bo’lmaydigan so’z, so’z birliklari va iboralari va ularni tarjima qilinib bo’lmasilikni bartaraf etish usullari. Ekvivalentsiz shakllar: ularning ekstralingvistik va lingvistik manbai. Jarayon sifatida tarjimaning asosiy muammolari. Tarjima birligi tushunchasi. Tarjima birliklari va til darajalari tizimi. Muayyan tarjimachilik yechimida tarjima birligini tanlash tizimida matnning o’rni kabilar.

Matnning madaniy-konnotatsiyalangan tarkibiy qismi va u sababli yuzaga keladigan muammolar

Matnning madaniy konnotatsiyalangan tarkibiy-qisman tushunchasi, ularning tarjimon faoliyatida tutgan o’rni va usullari. Maxsus ma’lumotnoma adabiyotlari, tarjimashunoslik sohasining umumiy ma’lumotlari. Matnning madaniy-konnotatsiyalangan tarkibiy- qismi sababli yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga doir tarjimon strategiyalari, ularning aniqlanuvchanligi va oldindan taxmin qilinishi. Tarjima va tillararo muloqot. Til va madaniyat tarjima va madaniyat aloqalari. Lingvokulturologiya.

Tarjimaning ekvivalentligi tushunchasi. Ekvivalentlik kategoriyasi mohiyatini tushunib olishga bo’lgan dastlabki urinishlar. Mamlakatimiz nazariyotchilarining muammolarini hal etishga qo’shgan hissalar. Ekvivalentlik

kategoriyasining tuzilishi, uning iyerarxik xususiyati va uning tarjima strategiyasi uchun ahamiyati. “Ekvivalentlik” va “aynan bir xillik” tushunchalarining o‘zaro nisbati. “Ekvivalentlik” darajasi va “tarjima birligi darajasi” tushunchalarining o‘zaro nisbati.

Tarjimashunoslikning nuqtai nazaridan asos va tarjima tillarining o‘zaro nisbati, tilda universallik va milliylik.

Tillararo assimetriya va u keltirib chiqaradigan muammolar. Turli xil o‘zlashtirmalar, ularning tarjimon tomonidan qiyinchiliklarni yechish jarayonida paydo bo‘lishi. Internatsional so‘zlar, ularning xususiyatlari va tarjimadagi roli. Tarjimonning soxta do‘stlari, uslubiy xulosalari.

Turli xususiyatli uslublarga xos matnlarni tarjimasi.

Publitsistik uslubning o‘ziga xos xususiyatlari. Publitsistik matnlarning milliy o‘ziga xosligi va u yuzaga keltiradigan tarjima muammolari. Ilmiy va ilmiy-ommabop uslubning o‘ziga xos xususiyatlari, ilmiy matnlarning milliy o‘ziga xosligi va u keltirib chiqaradigan muammolar. Tarjimadagi muvaffaqiyatsizliklar va ularning manbalari tarjimon faoliyat yuritayotgan ishtirokchi shaxs sifatida.

Tarjimaning ustuvor yo‘nalishlari.

So‘zma-so‘z va erkin tarjima tushunchasi, ularning tarjima birlik kategoriyasi bilan o‘zaro nisbati.

Tarjima transformatsiyalari.

Tilshunoslikda transformatsiya tushunchasi, uning tarjimon faoliyatida qo‘llanishi. Asosiy til doirasidagi transformatsiyalar, ularning sabablari va oldindan taxmin qilinishi mumkinligi. Tarjima tili doirasidagi transformatsiyalar, ularning sabablari va oldindan taxmin qilinishi mumkinligi. Tarjimada transformatsiyalarning turlari. Qo‘shish, tushirib qoldirish, almashtirish hodisalari.

Tarjima turlari.

Sinxron tarjima, ketma-ket, yozma tarjimaning rivojlanishi. Vizual tarjima, badiiy tarjima, terminologik tarjima. Tarjimon davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatuvchi va davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan mutaxassislik ekanligi, tarjimon ma‘rifat tarqatuvchi, o‘z xalqining, boshqa xalqlarning buyuk olimlari, yozuvchilarining asarlari bilan tanishtirishga mas‘ul bo‘lishi, har ikki tilning milliy ruhi va rang-barang vositalarini va ularning muqobillarini topish, tarjimon faoliyati shug‘ullanishi zarur. Tarjimon uslubi asl nusxa avtorining uslubini tarjimada saqlash. Til vositalaridan foydalanganda tarjimonning o‘ziga xos yo‘li, uslubi bo‘lishi zarur.

Tarjimon madaniyati.

So‘zlashish, bilim madaniyati, tarjima haqida olimlarning fikrlari, tarjimonning asosiy vazifalari, tarjimonlar ma‘rifat tarqatuvchilardir. Tarjimon mahorati. Badiiy asarlarni tarjima qilishda tarjimon mahorati. Tarjimon uslubi, she‘riyatda tarjimonning uslubi, tarjimon uslubining xususiyatlari, tarjimon madaniyati va uning asosiy tamoyillari, so‘zlashuv madaniyati, bilim madaniyati, urf-odatlarining madaniyatga ta‘siri, tarjimon fazilati. Tarjima haqida umumiy tushuncha, tarjima tushunchasining mazmuni, tarjima va iterpretatsiya, tarjimon va kitobxon, badiiy

adabiyot va badiiy tarjima, tarjimon muammosi, tarjimonlik kasbi va uning maqsad, vazifalari.

**5A120201-Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili)
mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga kiruvchilarning mutaxassislik fani
bo'yicha bilimlarini baholash MEZONLARI**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ijrosini ta'minlash, jamiyatimizning yuqori malakali yetuk mutaxassilarga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida, magistraturaga qabul O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020/2021 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish to'g'risida"gi Qarori (2021 y. 22 iyun. PQ-5157), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 iyuldagi №1/10-24 xatiga asosan "1 kurs magistraturaga mutaxassisliklar bo'yicha qabulni tashkil qilish haqida" asosida amalga oshiriladi.

5A120201-Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga kiruvchilar uchun sinov yozma va og'zaki shaklida o'tkaziladi. Mutaxassislik bo'yicha talabgorning 4 ta til ko'nikmalari va nazariy bilimlarini baholashga qaratilgan sinov tashkil etiladi. Bunda tillar bo'yicha tinglab tushunish, so'zlashish, fikrini yozma bayon etish va o'qib tushunish ko'nikmalari baholanadi.

Sinov quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi: 1-bosqich: 4 ta til ko'nikmalari bo'yicha test va og'zaki suhbat. Jami 80 ball beriladi. 2-bosqich: nazariy fanlar asosida yozma test. Jami 20 ball beriladi.

Sinovda quyidagicha vaqt me'yorlari tavsiya etiladi: 1-bosqich.

Test darajasi – C1 (CEFR). Test to'rt qismdan iborat: o'qish (Reading), tinglab tushunish (Listening), yozish (Writing) va gapirish (Speaking) ko'nikmalari. Yozma test: (2 soat) O'qish ko'nikmasi – 40 daqiqa Tinglab tushunish ko'nikmasi – 40 daqiqa Yozish ko'nikmasi – 40 daqiqa Og'zaki sinov: Gapirish ko'nikmasi – har bir topshiruvchi uchun 10 daqiqa.

O'qish bo'limi: Matnlar turli manbalar, jumladan, ro'znoma, jurnal, kitob va boshqa axborot manbalaridan olinadi. Jami 20 balgacha beriladi.

Tinglab tushunish bo'limi: Ushbu bo'lim 2 qismdan iborat bo'lib, sinov topshiruvchilar har bir matnni 2 marotaba eshitadilar. Har bir matn uchun 10 balgacha beriladi. Jami 20 balgacha beriladi.

Yozish bo'limi: Bu bo'limda sinov topshiruvchilar qanday turdagi, kimga mo'ljallangan va nima maqsadda matn yozishlari keltirib o'tilgan. Jami 20 ball beriladi.

Taklif xati (Proposal Letter)

200 - 250 soʻzdan oshmasligi kerak

Berilgan vaziyatga koʻra taklif xatini yozish

Mazmunning yoritilishga 8 ball. Orfografik xatolar uchun 3 ball. Grammatik xatolar uchun 4 ball. Leksik-stilistik xatolar uchun 5 ball.

Ogʻzaki sinov. Ogʻzaki sinov 3 qismdan iborat boʻlib, birinchi qismda sinov topshiruvchilardan oʻzlari haqida gapirib berishlari, ikkinchi qismda esa berilgan rasmlarni tasvirlab savollarga javob berishlari, uchinchi qismda taklif etilgan mavzuga talabgor oʻz munosabatini bildirishi talab qilinadi. Jami 20 balgacha beriladi. Savollarga mos ravishda javob berilganligi – 8 ball Nutq ravonligi - 3 ball Nutqning grammatik jihatdan toʻgʻriligi - 5 ball Talaffuzning toʻgʻriligi – 4 ball. Sinov oluvchi sinov topshiruvchiga ogʻzaki tarjima uchun matn beradi 3 daqiqa Sinov topshiruvchi berilgan matnni vizual ogʻzaki tarjima qilib beradi. Nazariy fanlar asosida test topshiriladi. Har bir toʻgʻri bajarilgan testga 1 baldan beriladi. Jami toʻplanishi mumkin boʻlgan maksimal 20 balgacha beriladi.

1. Magistraturaga kiruvchilar kirish sinovlarini ingliz tilida topshiradilar.
2. Mutaxassislik boʻyicha maxsus fandan sinov oʻtkaziladi.

Magistraturaga kirishda tanlangan mutaxassislik boʻyicha bilim darajasini belgilovchi maxsus fanlardan sinov oʻtkaziladi, baholash mezonini **0 balldan 100 ballgachani** tashkil qiladi. Sinov berilgan savollarga yozma ravishdagi javoblari asosida, kiruvchining tanlangan mutaxassislik boʻyicha nazariy bilimi aniqlanadi. Har bir variantda 4 ta savol boʻlib, savollar maksimal **25 ball** bilan baholanadi.

86 – 100 ballgacha – "a'lo";

71 – 85 ballgacha – "yaxshi";

56 – 70 ballgacha – "qoniqarli";

56 balldan past ball – "qoniqarsiz"

Asosiy adabiyotlar roʻyxati

1. Arnold I.V. Stilistika sovremennogo angliyskogo yazyka. (Stilistika dekodirovaniya). - 3-e izd. - M.: Prosveshcheniye, 1990. - 301 s.
2. Boduen de Kurtene I.A. Izbrannyye trudy po obshchemu yazykoznaniyu. M.:Izd-voAN, 1963, t. 1.-S. 384, t. 2-S. 391
3. Vinogradov V.S. Vvedeniye v perevodovedeniye. – M.: IOSO RAO, 2001. – 224 s.
4. Galperin I.R. Stilistika angliyskogo yazyka. - M.: VSh, 1981. -332 s.
5. Garbovskiy N.K. Teoriya perevoda. - Moskva, 2007.
6. Doʻstlik jurnali. AQSh elchixonasi. Dekabr 2007, 5- conl.
7. Komissarov V.N. Lingvistika perevoda. – M.: LKI, 2007. – 176 s.

8. Komissarov V.N. Teoriya perevoda (lingvisticheskiye aspekty). M.: Vysshaya shkola, 1990. – 250 s.
9. Komissarov V.N. Sovremennoye perevodovedeniye. - M., 2009.
10. Minyar-Belorusov. Posledovatelnyy perevod. - Moskva, 1969.
11. Muminov O., Turg'unova R., Rashidova A., Alimova D.. Translation\Yozma Tarjima\Pismenny perevod. – Toshkent, 2008.
12. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2005.
13. Minyar - Beloruchev R. K. Teoriya i metody perevoda. - Moskva, 1996.
14. Latyshev L.K. Texnologiya perevoda. – Moskva, 2001.
15. Maslova V.A. Lingvokulturologiya: uchebnoye posobiye dlya studentov vysshih uchebnykh zavedeniy. – Moskva, 2001.
16. Nayda Yu.Ya. K nauke kak perevodit // Voprosy teorii perevoda v zarubejnoj lingvistike. Sbornik statey. – M.: Mejdunarodnyye otnosheniya, 1978. – S.114-132.
17. Revzin I.I., Rozensveyg V.Yu. Osnovy obshchego i mashinnogo perevoda. M.: Vysshaya shkola, 1964. – 244s.
18. Retsker Ya.I. Teoriya perevoda i perevodcheskaya praktika. – M.: Mejdunarodnyye otnosheniya, 1974. – 216 s.
19. Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima. – Toshkent: Fan, 1980. – 160 b.
20. Salomov G'. Tarjima mahorati. – Toshkent: Fan, 1979. – 192 b.
21. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 232 b.
22. Sacheva O.S. Perevodcheskaya skoropis: teoriya i praktika. Izdatelstvo Sank-Peterburgskogo Gosudarstvennogo universiteta, 2011.
23. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011. – 166 b.
24. Sladkovskaya E.N. Osnovnyye smyslovyye komponenty vyskazyvaniya, perevodcheskaya transformatsiya i zapis pri posledovatelnom perevode // Smysl teksta kak ob'ekt perevoda: Sb. nauch. tr. MGPIYa im. M. Toreza. – M., 1986. – S. 67-76.
25. Sultonova D. She'r va tarjima. – Samarqand: SamDChI, 2009. –144b.
26. Stupin L.P., Lapitskiy A.N. Angliyskiy yazyk na nauchnykh konferentsiyax. - Leningrad, 1984.
27. Sdobnikov V.V. 20 urokov ustnogo perevoda. – Nijny Novgorod, 2003.
28. Tomaxin G.D. Realii – Amerikanizmy. – Moskva, 1988.
29. Fedorov A.V. Osnovy obshchey teorii perevoda. M.: Vysshaya shkola, 1983.
30. Xolbekova B. She'riy tarjima mezonlari // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2009. -№ 11. – B. 157-160.
31. Chujakin A.P. Ustnyy perevod – Moskva, 2001.
32. Chujakin A.P. Mir perevoda-2 Practicum Update – Moskva, 2008.
33. Shveyser A. D. Perevod i lingvistika: O gazetno-informatsionnom i voyenno-publitsisticheskom perevode. — M., 1973.
34. Shirayev A.F. Sinxronnyy perevod – M., 2009.
35. G'afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish. – Toshkent: Mehridaryo, 2008. – 119 b.

36. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. –Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2012.
37. Butaev Sh., Irisqulov A. Inglizcha-o‘zbekcha, O‘zbekcha- Inglizcha lug‘at. 70000 so‘z va ibora. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2008.
38. Muminov O., Sunnatov O. History of translation. – Tashkent, 2008.
39. Muminov O. A Guide to Simultaneous Translation. – Tashkent, 2005.
40. Muminov O. A Guide to Consecutive Translation. – Tashkent, 2013.
41. Yusupov U. Contrastive Linguistics of the English and Uzbek Languages.- T.: Akademnashr, 2013.
42. Rasulova M. I. Основы лексической категоризации в лингвистике. Т. “Fan”, 2005.
43. Sternin I.A. Kontrastivnaya lingvistika Problemy teorii i metodiki issledovaniya. M. 2006.
44. Fayzullaeva E.M., Saidova M.S., Mavlyanova N.A. The Guidebook on Comparative Typology of the English, Russian and Uzbek Languages. Tashkent, 2010.
45. Buranov J.B. Sravnitel'naya tipologiya angliyskogo i tyurkskix yazykov. M., 1983.
46. Bo‘ronov J. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. T.: O‘qituvchi, 1973

Baholash mezonlari

2021/2022 o‘quv yili 5A120201- Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili) magistratura mutaxassisligiga kiruvchi abituriyentlar uchun mazkur dasturga asosan keltirilgan umumkasbiy fanlar bo‘yicha: jami - 50 ta savol TEST tuzib kiritiladi va ularning har bir berilgan to‘g‘ri javobiga 2.0 balldan beriladi, jami maksimal ball 100 ballni tashkil qiladi, test savollarini yechish uchun 90 daqiqa vaqt ajratiladi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo‘yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay‘atiga natijalar e‘lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o‘zining ballari haqida bo‘lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.